

ALISHER NAVOIY BILAN TIRIK BU JON

Eshnazarova Gulsanam Faxriddin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi 1- kurs talabasi

Gulsanameshnazarova5@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bannopova Z.X

Anotatsiya: Alisher Navoiy millatimiz ruhi va faxr-iftixoridir. Biz bu insonni tilga olar ekanmiz, inson ma'naviy jihatdan butun dunyo sarvaridir deb ayta olamiz. Darhaqiqat, Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'anovich Karimov aytganlaridek : "Biz bu insonni olim desak -olimlarning olimi, mutafakkir desak- mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak- shoirlarning sultonidir". Shuningdek ,Alisher Navoiy millat ko'zgusi hamdir, negaki bir o'rinda shoir boshqa tomonlama olib qaraganda podshohning eng yaqin odami bo'lib qalam tebratmoq ham o'ziga yarasha kuch va matonatni talab qiladi. Shoir; o'z asarlarini yozar ekan inson har qanday ishga qodir ekanligi va bu yo'lda asosiy tayanch komilik yoki adolat ekanligini takror va yana takror aytib o'tadi. Shuni ham takidlash lozimki, ko'plab jabhalarda o'zini namoyon qila olgan olimimiz hali hanuz yoshlar qalbida mangu yashab kelmoqda va hatto, olimlar tomonidan ham bir necha asarlari o'rganib kelinmoqda. Masalan: "Lison ut-tayr" aynan tasavvufiy ma'nolarni o'z ichiga olganligi sababli ko'plab olimlar tomonidan ruhiy-ma'naviy yo'nalishda o'rganib kelinadi.

Kalit so'zlar: kamolat sari, eng ishonchli inson va do'st, bola tarbiyasi, davlat arbobi, nafis kuy sohibi, vatanparvarlik.

Kirish: Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida Amir Temurning o'g'li Shohruh mirzo shohligi davrida tug'ildi. Shoirni yaqin do'stlari Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ya'ni din va diyonatni nizomi deb atashgan. Albatta, shoirning ulug' nomlar bilan yurutishga sabab uning iqtidori, sa'nati demakdir. Alisher Navoiy 3 yoki 4 yoshda ekanligida Qosim Anvorning she'rlarini yod oladi. Shuningdek, Sa'diy Sheroziyning " Guliston va Bo'ston", Fariddin Attorning " Mantiq ut-tayr" asarini zavq bilan

o'qiydi. Shoirning qalbida adabiyotga mehr-muhabbat yoshligidanoq paydo bo'ladi. Uning otasi G'iyossiddin Muhammad (uni G'iyosiddin Kichkina ham der edilar) Temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan.

Alisher Navoiy saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sgan. U olim-u fozillar davrasida bo'lgan, balki shuning uchun kichiklik chog'idan she'r va musiqaga qiziqishi yuqori bo'lgan deb ham qaraladi. U maktabga qadam quyar ekan bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qiydi. O'sha davrlarda ham uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar el orasida tarqaladi. 1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriylar shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qolganligi sababli, Alisherning oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda Taft shahrining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma"ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Keyinchalik, Navoiy Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi. Keksa shoir Kamol Turbatini ham shu yerda uchratdi. Shoir 1464-yilda Hirotga qaytadi. Lekin poytaxtda uni noxushlik kutadi. Abusaid Mirzo u bilan taxt talashayotgan Husayn Bayqaroni yaqin kishilarini taqib qilib, Alisher Navoiyning tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'arbiylarni olinma-keyin qatl ettirgan.

Alisher Navoiy 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishlaydi. 1487-1488-yillarda astrobodga hokimlik qildi. Husayn Bayqaro uni o'ziga g'oyat yaqin tutar, har bir masalada u bilan maslahatlashar edi. Husayn Bayqaro Navoiyni katta vakolatlar bergan holda yonida qolishini va birga davlat boshqarishini xohlaydi. 1472-yilda esa Husayn Bayqaro "amir" (vazir lavozimiga) tayinlab qo'ydi. Buyuk shoir "amiri kabir" (ulug' amir), "amirul muqarrab" (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga ega bo'lgan.

Alisher Navoiyning aql- zakovati chindan ham maqtovga sazovor hisoblangan. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar birinchi devoni- "Badoye ul-bidoya" ("Badiylik ibtidosi") ni 1472-1476-yillar yozgan. 1485-1486-yillarda "Navodir un-nihoya" (Nihoyasiz nodirliklar) asarini va 1481-1482-yillarda "Vaqfiya" asarini yozadi. Hammaga ma'lim va mashhur asarlaridan biri

hisoblangan Hamsa asari ham ma'lum- mashhurdir. Bu asarni shoir 1483-yillar yoza boshlagan, 1485-yilning boshida tugatadi.

Xulosa: Alisher Navoiy nafaqat davlat ishlari-yu, shoirlikda balki psixologiya sohalarida ham o'z bilimini avlodlarga me'ros qoldirgandir. Shuningdek shoir davlat ishlaridan shoirlikni muhim deb topadi, shoirlik va davlat arbobi bo'lish orqali esa qolgan yoshlarning ta'lim olishiga shart-sharoit yaratib beradi. Jumladan: 1480-1500-yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ta hovuz qurdiradi. Albatta, bunday islohotlarning tak zaminida ulkan mehnat va ilm egallash kata o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Sharafiddinov Alisher Navoiy: Tanlangan asarlar Toshkent 1978
2. Izzat Sulton Navoiyning qalb daftari- T. G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969
3. M. Shayxzoda. G'azal mulkingning sultoni Asarlar. Olti tomlik. T. 4- T. 1972
4. T. Jalolov "Xamsa" talqinlari- Toshkent 1962 5. [i/au.uz/oz/news/251](http://i.au.uz/oz/news/251)
6. uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
7. Alisher Navoiy "xamsa"sining qo'lyozmalari katalogi. (tuz. Q. Munirov. M. Hakimov- Toshkent 1983.